

JANUBIY OROLBO‘YIDAGI MAYDA SU‘TEMIZUVCHILARNING TARQALISH DINAMIKASI VA ULARGA TASIR KO‘RSATUVCHI EKOLOGIK OMILLAR

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1016>

Alimova Sarbinaz Zinatdinovna

b.f.f.d (PhD), QMU

E-mail: Sarbinaz04091991@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Janubiy Orolbo‘yidagi mayda sut emizuvchilarning tarqalishi, ularga xarakteristika, ularning populyatsiyasidagi o‘zgarishlar va Kemiruvchilarning ayrim turlarining antropogen tasirlarga bo‘lgan munosabati va qishloq xo‘jaligi landshaftiga moslashishi, mezofil va kserofil hududlardagi turlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Jumladan mezofil tur hisoblangan Ondatra Zibethica haqida ma‘lumotlar kengroq yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Janubiy Orolbo‘yi, kemiruvchilar, dinamika, jamoalar, mayda sutemizuvchilar, Ondatra Zibethica.

Hayvonlar son dinamikasini o‘rganish populyatsion ekologiyaaning muhim yo‘nalishlarining biri bo‘lib, tabiiy va antropogen omillarning hayvonlar soniga ta‘sirini aniqlash, noyob va yo‘qolish xavfi ostidagi turlarni himoya qilish, ekotizimdagi muvozanatni tushunish, qishloq xo‘jaligi va sog‘liqni saqlashda zararkunandalarni boshqarish va tartibga solishdan iborat.

Mayda sutemizuvchilar — taksonomik jihatdan umumlashgan hayvonlar guruhi bo‘lib, sichqonsimon kemiruvchilar va mayda hasharotxo‘rlarni o‘z ichiga oladi va jamoalar dinamikasiga muhim biotsenoz komponenti sifatida sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. (jumladan, birinchi darajali mahsulotlarni o‘zlashtirish, urug‘larni tashish, er kovlash, umurtqasizlar funktsional guruhlarini chiqarib tashlash faoliyati va hokazolardir). Bundan tashqari, sonlarning yuqori darajada o‘zgaruvchanligi, turlarining xilma-xilligi va statsion taqsimlanishi jarayonida tanlov xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, ular o‘simliklarning ketma - ketlikdagi o‘zgarishlari hamda biotsenozlarning tashqi buzilishlarini ko‘rsatuvchi indikator sifatida xizmat qiladigan qulay model ob‘ekti bo‘lib xizmat qiladi [1, 2].

Mayda sut emizuvchilar – tana hajmi kichik, lekin biologik xilma-xilligi juda yo‘qori bo‘lgan hayvonlar guruhi bo‘lib, ular turli muhitlarga moslashgan. Ular ekologik zanjirda muhim o‘rin egallaydi ayniqsa tuproq unumdorligini saqlash, hashorotlar sonini tartibga solish va yirtqichlar uchun oziq bo‘lishda.

Janubiy Orolbo‘yi kemiruvchilar faunasi 6 oilaga, 21 avlodga mansub 28 turdan iborat. Mayda sutemizuvchilarning keng tarqalganligi, ularning o‘simliklarga, relyefga, tuproq hosil bo‘lish jarayonlariga ta‘siri, yirtqich hayvonlar va qushlarning trofik zanjirlarida ishtiroki, shuningdek, ularning yuqori soni ushbu guruhning ekotizimlardagi biologik aylanishlarda nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Ayrim turlar esa g‘allachilik xo‘jaligiga va ba‘zi daraxt turlarining tabiiy qayta tiklanishiga sezilarli zarar yetkazadi. Mayda sutemizuvchilar va ularning ektoparazitlari tabiiy infeksiya o‘choqlarini saqlashdagi roli bilan e‘tiborni tortadi [3, 4, 5].

Shunga qaramay, mayda sut emizuvchilar populyatsiyasidagi o‘zgarishlarni o‘simlik qoplaminig ketma ketlik (suksessiya) o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq holda ishlangan taqdiqotlar kam uchraydi. Aksariyat hollarda, bunday tadqiqotlar faqat bir necha bosqichlarni, ko‘pincha ikkinchi darajali suksessiyani tahlil qilish bilan cheklanadi.

Landshaftning antropogen transformatsiyasi turli xil kemiruvchi turlarining yashash sharoitlarini tubdan o'zgartiradi. Mikroiklim, mavjud ozuqa zaxiralari, shuningdek, boshpanalarini yaratish imkoniyatlari o'zgaradi. Eng katta ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik yuritish shakllari o'simlik qoplamini yo'qotish va tuproqning ochilishiga olib keluvchi faoliyatdir [6].

Sichqonsimon kemiruvchilarning ozuqa qidirish faoliyati ularning organik massani qayta ishlashi va qayta taqsimlanishi, uni ovqat hazm qilish tizimi mikroob kompleksi bilan boyitishi orqali o'simlik qoldiqlarining yig'ilishi va minerallashuvi jarayonlarini tezlashtiradi, shuningdek, o'simlik qoplamining tuzilishiga intensiv va tanlab iste'mol qilishi orqali ham ta'sir qiladi [7]. Er kovlash faoliyati esa tuproqning yuqori qatlamlarini aralashtirish va yumshatishga yordam beradi, bu o'z navbatida tuproqning gidrotermik va fizik xususiyatlarini o'zgartirib, tuproqdagi biologik jarayonlarning intensivligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [7].

Mayda sutemizuvchilar populyatsiyalari dinamikasi endogen va ekzogen omillarning yig'ma ta'siri ostida shakllanadi hamda murakkab mavsumiy va ko'p yillik tebranishlar xususiyatiga ega [6].

Kemiruvchilarning ayrim turlarining antropogen tasirlarga bo'lgan munosabatiga va qishloq xo'jaligi landshaftiga moslashishiga qarab ularni ikki guruhga bolish mumkin. Birinchi guruhga immigrantlar yani, to'qay va suv atrofidagi o'rmoni kompleksining immigrantlari kiradi; *Mus musculus* sinantrop tur sifatida, *Nesokia indica* va *Ondatra Zibethica* lar kiradi. Ushbu turlar sug'oriladigan hududlarda barqaror va juda ko'p sonli populyatsiyalarni moslashgan hududlaridagi yetarli ekologik sharoitlarini hosil qildi.

Ondatra (Ondatra Zibethica) 1935-yilda Shimoliy Amerikadan Yevroosiyoga keltirilgan. Qozog'istonga, xususan, Sirdaryo va Ili havzalariga 571 *ondatra* keltirilib, qo'yib yuborilgan. Yangi sharoitlarda ondatraning tabiiy dushmanlari va kasallik qo'zg'atuvchilari bo'lmagani sababli, ularning soni tez o'sa boshlagan [8].

Ondatra yoki *Ondatra Zibethica* kemiruvchilar toifasiga kiradi. Tanasining uzunligi 30–40 sm, vazni taxminan 1 kg. Uzun va tangachali dumi mavjud. Orqa oyoqlarida suzish pardalari bor. Tanasi teng tusli bo'lib, rangi och qizg'ishdan to'q jigarranggacha o'zgaradi [8].

Ondatra yarim suvli turmush tarzida asosan daryo, ko'l, botqoqlik va kanallarning qirg'oqlarida yashaydi. U sayoz suv havzalarini, qalin o'simlik qoplamini tanlaydi [9]. U boshpana uchun uya yoki kulbalar quradi. Asosan o'simliklar, jumladan, qamish, qunchqar, qo'shni o'tlar bilan oziqlanadi.

Turli biotoplardagi hayvonlar soni A.N. Formozov (1932) va V.S. Smirnov (1964) tomonidan ishlab chiqilgan usullar asosida maxsus belgilangan yo'nalishlarda (marshrutlarda) tizimli ravishda aniqlanadi.

Shunday qilib kemiruvchilarning mezofil turlari populyatsiyasi dinamikasiga tasir ko'rsatuvchi asosiy ekologik omil Amudaryoning gidrologik rejimi va ozuqa bazasi hisoblanadi.

Iqlimning zamonaviy tuproq namlanishi va sho'rlanishi jarayonlaridagi muhim rolini, shuningdek, so'nggi paytlarda yer osti suvlari dinamikasiga, tuproq va o'simlik qoplamasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan iqlim o'zgarishlarga oid ko'plab ilmiy ishlar paydo bo'lganini inobatga olib, Orolbo'yi hududida iqlim o'zgarishlarining mavjudligini aniqlash maqsadida tadqiqotlar olib borish zarur [10].

Shunday qilib kemiruvchilarning mezofil turlaridan biri hosoblangan *Ondatra Zibethica* hozirgi vaqtda o'rganilishni talab qiladigan turlardan hisoblanadi. Chunki mezofil turlar suv muhitining indikatori hisoblanadi. Ularni o'rganish orqali suv muhitining hozirgi holatini yani gigrorejimning o'zgarishini ulardagi suvning ko'p yoki ozligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахиев А.Б., Викторов С.В. Природные условия Каракалпакии // Флористические и эколого-геоботанические исследования в Каракалпакии. Т. 1. - Ташкент: Фан, 1987. - С. 4-17.
2. Кузьмина Ж.В., Трёшкин С.Е. Климатические изменения и Перспективы восстановления растительности в Приаралье // Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса. № 2 (18). - 2010. -С. 10-20.
3. Мухачева С.В. Экотоксикологические особенности и структура населения мелких млекопитающих в градиенте техногенного загрязнения среды// Автореф. дис ... канд. биол. наук. – Екатеринбург: ИЭРиЖ УрО РАН. – 1996. – 22 с.
4. Майр Э. 1971. Принципы зоологической систематики. М.: 1-454.
5. Павлинов И.Я. Концепции систематики и концепции биоразнообразия: проблема взаимодействия // Журн. общ. биол. 2001.- Вып.62, № 4.- С. 362-366.
6. Гашев С. Н. Млекопитающие в системе экологического мониторинга (на примере Тюменской области). Тюмень: ТюмГУ, 2000.- 220 с.
7. Кузьмина Ж.В., Трёшкин С.Е. Прогнозная оценка изменения экосистем при создании крупного коллектора в бассейне Амударьи // Оценка влияния изменения режима вод суши на наземные экосистемы. М.: Наука, 2005. - С. 316-341.
8. Реймов Р.Р., Нуратдинов Т., Ширяев В.В. Биология ондатры в водоемах аридных зон: (Распространение, экология и хоз. значение). - Ташкент: Фан, 1989. – 88 с.
9. Реймов Р.Р. Млекопитающие Южного Приаралья – Ташкент. ФАН, 1985. – 125с.
10. Ивантер Э.В. Популяционная экология мелких млекопитающих Таежного Северо-Запада. -М., Наука. -1975.- 246 с.